2023

DEVELOPMENT AND INNOVATION
SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

https://sites.google.com/view/imxu/
реестр:1070589

TAQIY USMONIYNING “BUHUS FI QAZAYA FIQHIYYA MU’ASARO” ASARI MUHIM FIQHIY MANBA SIFATIDA TAHLIL

Ahmedov Muhammad Amin Farxodbek o’g’li
O’zbekiston xalqara islom akademiyasi magis

Annotatsiya. *Maqolada islom huquqiga oid manbalar orasidan islom moliyasiga oid asarlar tahlil qilindi va ulardagi hukmlar solishtirib chiqildi. Xususan Muhammad Taqiy Usmoniyning faoliyati va u zotganing qalamiga mansub asar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Fiqhiy mabalar orasidan Taqiy Usmoniyning muallifligidagi asarlar bir qancha bo’lsada, ular orasidan aynan o’zida zamonaviy fiqhiy masalalarni qamrab olgan “Buhus fi qazaya fiqhiyya mu’asaro” o’rganildi.*

Kalit so’zlar: *Taqiy Usmoniy, Islom moliyasi, Fiqh, Ribo, Iqtisodiy masalalar*

Insoniyat bu olamda yaryatilganidan beri o‘zining yeyish-ichishga, kiyinishga, boshpana va shular singari boshqa ehtiyojlarini ta’minlashga va maishiy va iqtisodiy hayotini yaxshilashga zarurat sezadi. Albatta, mazkur o‘zining hojatlarini qondirishdaYaratgan ato qilgan boylik va tabiiy resurs (manba)lardan

foydalangan holda tinmasdan yashash uchun kurashib keladi. Zero, bashariyatning sa'yi-harakati rivojlanishga va o'zaro tajriba almashishga olib boruvchi eng katta omildir. Shu bois u iqtisodiy boshqarishlarni qabul qiladi, idoraviy amalga oshirish darajasini yaxshilashga urinadi, pullar ixtiro qiladi, ma'lumotlar va o'zaro munosabatlar olamida boylik to'plashga intiladi va hokazo.

Darhaqiqat, bu iqtisodiy rivojlanish faylasuflar va ularning kitoblaridagi iqtisodiy fikrlar va qarashlar orqali ro'y bergan. Samoviy dinlar esa ularga qo'shimcha qilgan holda qoidalar, hukmlar va iqtisodiy qonunchilikka doir printsiplarni hayotga joriy qilib borgan. Ammo bu iqtisodiy fikrlar ko'pgina kitoblarda sochilib yotar va har xil qarashlardan, insoniy hayot tarzi va uning hayotiy falsafasi bilan bog'liq boshqa qonunlardan bir juz bo'lib namoyon bo'lar edi.

Yevropada mazkur iqtisodiy fikrlar mustaqil fan va aniq ifodani kasb etgan holda milodiy o'n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmida G'arb olimi Edim Smit o'zining iqtisodga tegishli "Xalq boyligi" kitobini yozayotgan paytlarda rivojlana boshlagan[1].

Ammo Islom dinining avvalgi asrlarida islomiy iqtisodiy tushunchalar mustaqil holatda foydalanilgan bo'lmasada va iqtisod tushunchasi bilan boshqa islomiy hayot tarzi tushunchalari orasi ajratilmagan bo'lsada, amalda bajarishda va real tatbiq etish jarayonida iqtisodning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan.

[1] Abdulmajid Ali Abu Mariqo. Al-Iqtisodul-islamiy, 2009. – B. 3.

Misol qilib aytadigan bo‘lsak, zakot va unga o‘xshash boshqa moliyaviy ibodatlar shariat yo‘li bilan yig‘ilgan. O‘lja va g‘azotlarda tushgan g‘animatlar faqir va g‘oziylardan iborat haqdorlar o‘rtasida taqsimlangan va beshdan biri foydalanish va harajat qilishni tartibga solish uchun baytulmol (umumiy xazina)ga qo‘yilgan. Shunday qilib, amalda tatbiq qilish voqelikda paydo bo‘ladigan murakkab va jiddiy moliyaviy mushkilotlar paytida islomiy iqtisodiy tushunchani o‘rganishga va u haqda bahs olib borishga keng eshiklar ochib berdi.

Darhaqiqat, islom fiqhida yozilgan moliyaviy, iqtisodiy bahs va darsliklardan iborat asarlarni ko‘pligidan varaqlab o‘qib chiqish yoki sanab sanog‘iga yetish juda mushkul ishdir.

Namuna sifatida islom shariatida, xossatan, mol-mulk ahkomlari to‘g‘risida eng oldingi yozilgan ba’zi bir ko‘zga ko‘ringan islomiy asarlarni sanab o‘tadigan bo‘lsak, Abu Abidul Qosim ibn Salomning (224 h) “Kitobul amvol” kitobi, Yahyo ibn Odam (203 h) va Abu Yusuf Yaqub ibn Ibrohimlarning (182 h) “Al-Xaroj” kitoblari, ibn Toymaning “al-Hisobot” kitobi, ibn Xaldunning “Muqaddima” kitobi va boshqalar.

Mazkur yozilgan asarlar ichida eng mo‘‘tabari Abu Yusuf (r.a)ning “Al-Xaroj” kitobi bo‘lib, xalifa Xorun Al-Rashid davrida qozilar xaroj va shunga o‘xshash barcha moliyaviy muammolarning yechimida ushbu kitobga murojaat qilishgan va savollariga batafsil suratda javob topishgan. Qolaversa, Ibn Xaldunning iqtisodga tegishli “Muqaddima” asari g‘arbliklar faxr bilan “G‘arb

iqtisodining otasi” deb tilga oladigan Adam Smit tug‘ilmasidan to‘rt asr burun, ya’ni hijriy hisob bilan sakkizinchi yilda katta e’tibor qozongan va murojaat qilinadigan manbalardan bo‘lgan.

Ma’lumki, islom iqtisodining masdari Qur’on, sunnat va jamlangan fiqhiy hukmlardan iboratdir. Shularga suyangan holda ishlab chiqilgan shar’iy usuliy qoidalar esa islom jamiyatida sodir bo‘ladigan yangi-yangi muammo va yechimlarga batafsil javob beradi.

Islom iqtisodiy tizimi insoniyatning barcha hojatlarini o‘z ichiga to‘la qamrab oluvchi umumiy tizimdir. Chunki Islom dini umumiy bo‘lib, bandaning Alloh bilan bo‘ladigan aloqalarini va jamiyatdagi insonlarning bir-birlari bilan bo‘ladigan aloqalarini tartibga solib turadi. Bu nizom har xil aloqaviy qoidalarni, mulkiy, shaxsiy, adliyaviy, ijtimoiy ta’minotlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, jamoaviy va yakka holatdagi ishlarning yechimini bashariyatga taqdim qilib turadi.

Islom dini har xil bir-biridan farqlanuvchi iqtisodiy boshqaruvlarni o‘z tarkibiga oluvchi muayyan qonun va printsiplar bilan kelgan vaqtidan boshlab, uning bu qoidalari Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zamonlaridayoq diqqat bilan amalda tatbiq qilina boshladi. U Zotdan keyin islom tarixi davomida xulafoi roshidinlar, hokimlar va musulmon imomlari bir-birlaridan ajralib turadigan darajada qo‘llab kelishgan.

E’tibor berib qarasak, islom iqtisodiyotining ikki xilligini, ya’ni soddaroq qilib aytsak ikki tomoni borligini ko‘ramiz:

A) Sobit turuvchi, ya’ni o‘zgarmas tomon. Bu iqtisodiy qonun-qoida va printsiplar majmu’asidan iborat bo‘lib, har bir zamon va har bir makon musulmonlari unga amal qilishlari lozimligi uchun Qur’on va sunnatda nasslar kelgan (ya’ni, aniq bayon qilingan). Misol qilib keltirsak, Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday deb marhamat qiladi:

﴿ وَأَحَلَّ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحَرَّمَ الرِّبَا ٢٧٥﴾

“**Holbuki, Alloh bay’ni (savdoni) halol, riboni esa harom qilgan**”

(*Baqara surasi, 275-oyat*)[2].

Bu o‘zgarmas moliyaviy qoida bo‘lib, hech bir zamon va makonda uni o‘zgartirishga hech kimning huquqi yo‘q (ya’ni, riboni halol va savdoni harom qilolmaydi). Yana boshqa oyat misolida shunday degan:

﴿ كَيْ لَا يَكُونَ دُولَةً بَيْنَ الْأَغْنِيَاءِ مِنْكُمْ ٧﴾

“**Sizlardan boy-badavlat kishilar o‘rtasidagina qo‘lma-qo‘l bo‘lib yuraveradigan narsa bo‘lib qolmasligi uchun**”[3]. (*Hashr surasi, 7-oyat*)

Bu oyatda o‘sha davrda tushgan o‘ljalarni qanday taqsimlash lozimligi bayon qilinyapti. Oyatning davomida u narsalarga kimlar haqli ekani zikr qilinadi. Yuqoridagi va shular singari boshqa umumiy nasslar (Qur’on matnlariga nass deyiladi) umumiy normalar bilan cheklangan erkinlik printsiplari, iqtisodiy taqsimlashni amalga oshiruvchi va xususiy mulkchilik printsiplari kabi ba’zi qoidalarni ta’kidlab amalda joriy qiladi. Bu kabi qoidalar sobit bo‘lib, vaqtlar,

[2]A. Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T. : TIU, 2004. – B. 388.
[3] O’sha manba. – B. 388.

zamonlar va insonlar o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydi.

Diqqat bilan qaralsa, bunday qoidalar umumiy bo‘lib, kam sonni tashkil qiladi va har qanaqa jamiyatning har qanday hojatlariga to‘sqinlik qilmaydi. Bu islom iqtisodining eng katta sirlaridan va uni boqiyligidan, deb hisoblanadi. Zero islom iqtisodining rivojlanish darajasi haqida gapirmasak ham uni har bir zamon va har bir makonga solahiyatligini ko‘ramiz.

B) O‘zgaruvchi taraf. Bu uslublar, amaliy reja va yo‘nalishlar hamda iqtisodiy yechimlar bo‘lib, ularni har bir islomiy jamiyatdagi davlat va hukumatlar bu moddiy voqealikda o‘zlarining iqtisodiy siyosiy printsiplarini yaratish uchun iqtisodiy hamkorlik doirasida qabul qiladi. Bu ishlab chiqqan qoidalari nasslarda (asl manbalar) ochiq oydin kelmasada, shariat ahkomlariga muxolif bo‘lmaydi. Yana shariatdagi usuliy qoidalarga asoslanib chiqariladigan printsiplarni ham misol qilsak bo‘ladi.

Muhammad Taqiy Usmoniy Hafizahullohning “Buhus fi qodoya fiqhiyya mua’saro” asarlarida yuqorida aytib o‘tilgan va ko‘plab boshqa zamonaviy fiqhiy-moliyaviy masalalar, ularning hukmlari va shartlari, hozirgi voqe’likka tatbiq qilish yo‘llari va misollar bilan juda go‘zal, tushunarli tarzda yoritilgan. Mazkur asarda taqsit bitimi, huquqlar savdosi, qarzni sotish hukmlari, tavarruq kelishuvi masalalari, Sukuk Islomiy qimmatbaho qog‘ozlar va shu kabi boshqa, fiqhiy klassik matnlarda uchramaydigan, zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy masalalar yoritilgan.

Mazkur mavzulardan bilinib turibdiki, ushbu kitob klassik fiqhiy manbalarga tayangan holda ko'plab zamonaviy-moliyaviy masalalarga yangicha yondashuv, kundalik hayotdan kelib chiqqan holda ko'plab yechimlar taqdim qiladi. Turli xildagi ananaviy, ba'zi jihatlarga ko'ra shariatga to'g'ri kelmaydigan moliyaviy mahsulotlarga muqobil ravishda islomiy halol mahsulotlar va ularning shartlarini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari mazkur masalalarni shar'iy jihatdan dalillar bilan isbotlab, agar fiqhiy mazhablar o'rtasida bu borada ixtiloflar bo'lsa ularni keltiradi va olimlar tarafidan to'g'riroq deb topilgan yechimni izohlagan.

Demak, ushbu kitob zamonaviy fiqhiy masalalarni moliyaviy qismini o'rganishda, ularga zamonaviy va shu bilan bir qatorda to'liq shariatga muvofiq yechimlar taklif qilishdagi tengi yo'q ajoyib asar desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

2023
DEVELOPMENT AND INNOVATION
SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL
https://sites.google.com/view/imxu/
реестр:1070589

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 8-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahriri.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43 - sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, va O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni.
4. Vazirlar Mahkamasining “Birjadan tashqari valyuta bozori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2001-yil 10-iyuldagi 294-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2001-y., 7-son, 38-modda)
5. Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-dekabrdagi 995-sonli qarori tahririda – Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018-y., 09/18/995/2287-son

Ilmiy asarlar, risolalar

6. A. O‘lmasov, A. Vahobov. Iqtisod-Moliya. – Toshkent: Davlat Iqtisodiyot universiteiti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, 2014. – 524 b.
7. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: TIU, 2004. 184 b.
8. Abdulvahhob Xallof. Usulul fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). I J. – Toshkent: Xalqaro islom tadqiqot markazi-Adolat, 1997. – 317 b.
9. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: J II. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 432 b.
10. Alouddin Kosoni. Badoe as-sanoe. 1. J. – Toshkent: Sharq, 2021. – 601 b.
11. Alouddin Kosoni. Badoeus sanoe. 2. J. – Toshkent: Sharq, 2021. – 562 b.
12. Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. 2- jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020. – 591 b.
13. Hofiz Shamsuddin Zahabiy. Gunohi Kabiralar. – Toshkent: Movaraunnahr, 2004. 467 b.
14. Imom Muslim. Sahihi Muslim.– Toshkent: Hilol-nashr, 2019–J.I. – 672. b.
15. Muhammad Ali Sobuniy. Rovai’ul bayon kitobi / Rustamjon Mahmudov. Andijon, 2020. – 918 b.

16. Muhammad Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy. – Toshkent: Irfonnashr, 2015. J.I, II, III. – 1200 b.
17. Muhammad Sodiq Muhammadyusuf. Kifoya 3-juz . – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2019. – 512 b.
18. Nodir Nabijon o‘g‘li. Halol tijorat sirlari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 312 b.
19. Safiyurrohman Muborak Puriy. Rohuq al-maxtum. / Fayzulloh Lutfulloh o‘g‘li nashrga tayyorlagan – Toshkent: Sharq, – 2020. 520 b.
20. Yerlan Baydaulet. Islomiy moliya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 378 b.
21. Zarnujiy. Ilm olish sirlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 87 b.

Xorijiy tildagi adabiyotlar

22. Abdulloh ibn Mahmud al-Mavsiliy. al-Ixtiyor li-ta’lil al-Muxtor. 1-jild. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, (yili ko‘rsatilmagan). – 579 b.
23. Abul Hasanot Haydarobodiy. Zujojat al-Masobih. J 1. – Karachi: al-Bushro, 2015. – 947 b.
24. Abulhasan al-Quduriy. Muxtasar al-Quduriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1997. – 345 b.

25. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar: Ok. 42000 slov. – 6-ye izd., stereotip. – M.: Rus. yaz., 1985. – 944 s.
26. Burhon ad-din al-Marg‘inoniy. Al-Hidoya: Sharh Bidoyat al-mubtadiy. 3-J. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiy, 1995. – 303 b.
27. Husayn Shavad. Abdulhaq Humaysh. Fiqh al-uqud al-maliya. – Iordaniya: Dar al-bayariq, 2012. – 458 b.
28. Muhammad Abu Zuhra. Usul al-fiqh. – Qohira: Dor al-fikr al-arobiy, 2003. – 479 b.
29. Muhammad ibn Ali Al-Quri. Muqaddimatu fii an-nuqud va al-bunuk. –Jidda: Dor al-hafiz, 1996. – 286 b.
30. Muhammad ibn Ali Al-Quri. Muqaddimatu fii usul al-iqtisod al-islamiy. – Jidda: Dor al-hafiz, 2002. – 347 b.
31. Muhammad Taqi Usmoniy. Fiqh al-buyu‘ ala al-mazahib al-arba‘a. – Karachi: Dor an-nashr; 2015. – 1266 b.
32. Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fiy qozoya fiqhiyya muasoro. – Damashiq: Dar al-qalam, 2013. – 1109 b.
33. Muhyiddin Navaviy. Riyozus solihin min hadis sayyid al-mursalin. – Riyoz: Dor Ibn al-Javziy, 2000. – 778 b.

34. Nuriddin abu al-Hasan Ali al-Qori. Fathul babul inoya. 2-jild. Livan. Dorul qolam, 2020. – 576 b.
35. Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiya / Mavlono Muhammad Alining "Aqd al-faroid alo Sharh al-aqoid" nomli hoshiyasi bilan. – Karochi: Maktabat al-bushro, 2009. – 536 b.
36. Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Toj ash-shari'a al-Buxoriy. Muxtasar al-Viqoya fiy masoil al-Hidoya. – Qozon: 1911. – 210 b.
37. V.Zuhayliy. Usul al-fiqh al-islamiy. – Damashq: Dor al-fikr, 1986. J.2. – 423 b.

Internet saytlari

www.lex.uz
www.qadiryat.uz
www.islommoliyasi.uz
www.noor-book.com